

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PIRLS DAN FOYDALANISH STRATEGIYASI

Yuldasheva Obidaxon Sobirovna

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani

30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS-xalqaro baholash dasturining turlari, mazmun-mohiyati, foydalanish strategiyasi haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqot, matn, o‘qish savodxonligi, xalqaro, baholash, dastur...

“Odamlar qachonki, o‘qishdan to‘xtashsa,
tafakkur qilishdan to‘xtashadi.”

Deni Didro

Barchamizga ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim o‘qish savodxonligida o‘quvchilar axborotni topish va ajratib olish, integratsiyalash va sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish va baholash, matnning mazmuni anglash kabi ko‘nikmalarini hosil qiladi. Zero, bugungi kunning dolzarb vazifasi o‘quvchilarimizni yuksak ma’naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, savodxon va ijodkor, eng asosiysi, xalqaro baholash dasturlari talablariga to‘la javob beradigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. PIRLS – xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini yaxshilash omili ham hisoblanadi. PIRLS –boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi. PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish

va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu tadqiqot dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish darajalarini taqqoslovchi shuningdek, mamlakatlarning milliy ta’lim tizimlaridagi farqlarni aniqlashga ixtisoslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi. **Keling, bu borada tadqiqotlarga yuzlanamiz. Xo‘sish, PIRLS tadqiqoti kim tomonidan va qachon joriy etilgan?** Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas’uliyat Chestnut Hill (Massachusetts, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma’lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ilk bora tadqiqot **2001-yilda** o’tkazilgan. Tadqiqot **har 5 yilda** bir marotaba o’tkaziladi. Tadqiqot asosan o‘quvchilarning dars vaqtidagi va maktabdan tashqari vaqtdagi ikki turdagи o‘qish savodxonligini baholaydi. O‘qish savodxonligining maqsadi badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanishdir. Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qishda o‘qish ko‘nikmalarining quyidagi to‘rt guruhi baholanadi:



PIRLS tadqiqotida matn xaritasi mavjud bo‘lib, u matning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, masalan: u etarlicha mazmunli va tushunarligini aniqlaydi. Matndagi muhim g‘oyalarni va ularning o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatadi. Asosiy g‘oyalar, ularning munosabatlarini va matnni yaratish bo‘yicha vazifalarni ishlab chiqishga

aloxida e'tibor qaratadi. Shu o'rinda PIRLS mezonlari tomon yuzlanib, fikr-mulohaza yuritamiz.

PIRLS TADQIQOTIDA ISHLATILADIGAN MATNLAR UCHUN QUYIDAGI MEZONLAR BELGILANGAN.

1.Uzunligi: PIRLS: 1000 ta so'zgacha .PIRLS-literacy o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z.

2.Mavzu:Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib berish kerak.

3. Til.Qismlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki sleng (jargon) ishlatilmaydi.

Haddan ziyod ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

4.Mazmuni: Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariiga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'limgan bo'lishi lozim.

5.Bog'liklik va ketma-ketlik. Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Oddiy va murakkab gaplarning bir hil ishlatalishi. Agar dialog ustunlik qilsa ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak. Axborot matnda matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma ketligini sarlavxalar, jadvallar , grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'likligini kuzatish shartdir.

Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Tadqiqot asosan o'quvchilarning dars vaqtidagi va maktabdan tashqari vaqtdagi ikki turdag'i o'qish savodxonligini baholashi bilan ahamiyatlidir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Axmedov X. Xalqaro baholash dasturi va uni o‘tkazish.O‘quv qo‘llanma.2017-y
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi PQ 1243-sodn 08.05.2019 yil.
- 3.веб-сайт: markaz.tdi.uz <http://www.pirls.org/> PIRLS халкаро тадқиқоти дастури.